

Jek London “Martin Iden. Sinfy tabaqalanishni yengib o’tgan qahramon

I.A.Jabborov

Angren Universiteti “Xorijiy til va adabiyoti” kafedrasida Ingliz tili o’qituvchisi

Annotatsiya. *Jek Londonning “Martin Iden” asari sinfii tabaqalanish, jamiyatdagi insonlar hayotidagi farqni, odamlar mashhur va nochorlarga nisbatan muomilasidagi tubsiz yiroqlikni, inson irodasini uning nelarga qodirligini, agar insonda chin dildan g’ayrat shijoat bo’lsa uddalab bo’lmaydigan ishning o’zi yo’qligiga ishontira oladigan asar. Sevgi qanchalik kuchli bo’lmasin qadr topmasa uni inson hayotida keraksiz narsaga aylantirib qo’yadigan ba’zi narsalar borki buning hamma hammasi Martin Idenni bu dunyo adabiyotining nodir ajralmas qismiga aylantiradi. Kitobni o’qir ekan, kitobxon beixtiyor Martin bilan yashay boshlaydi, ba’zan sevadi ba’zan esa Martinning bunchalik irodaga ega ekanligidan asabiylashadi. O’sha jamiyatdagi taasufki ayni hozirgi zamon hayotimizda ham avj olgan sinfii ajralish Martinni umrini so’nggi soniyalarini tezlashtirib yuboradi.*

Kalit so’zlar: *Iroda, matonat, Martin, Ruf, matroslik, ijod, ruhiyat, qalb, sevgi, mashhurlik, tushkunlik, ziddiyat, o’qimishlilik, omilik, o’smirlik, kuch, shijoat.*

Abstract. *Jack London's "Martin Eden" is about the class stratification, the difference in people's lives in society, the abysmal difference in the way people treat the famous and the poor, what the human will is capable of, the work itself that cannot be accomplished if a person has sincere enthusiasm and courage. a work that can convince you that it is. No matter how strong love is, if it is not appreciated, there are some things that make it unnecessary in human life, and all this makes Martin Eden a rare and indispensable part of this world's literature. While reading the book, the reader involuntarily begins to live with Martin. Unfortunately, the class separation in that society, which is currently rampant in our lives, hastened the last seconds of Martin's life.*

Key words: *Will, fortitude, Martin, Rufus, sailor, creativity, spirit, soul, love, popularity, depression, conflict, education, importance, adolescence, strength, courage.*

Avval boshidan Jek London va uning hayoti va Martin Idenni yozishga undagan istak haqida gaplashsak. London 33 yoshida Martin Idenni yozganida, u "Yovvoyi chaqiriq", "Dengiz bo'risi" va "Oq so'yloq" asarlari bilan allaqachon xalqaro miqyosda shuhrat qozongan edi. E'tirofqa qaramay, u tezda o'z shon-shuhratidan hafsalasi pir bo'ldi va o'zi ishlab chiqqan Snark kemasida Tinch okeanining janubi bo'ylab suzib ketdi. Ikki yillik mashaqqatli sayohatda, charchoq va ichak kasalliklari bilan kurashar ekan, u Martin Idenni yozdi va uning sahifalarini o'zining umidsizliklari, o'spirinlarning janjallari va badiiy tan olinishi uchun kurashlari bilan to'ldirdi. Roman uchun eslatmalarida u dastlab. Unga "God's Own Mad Lover" Xudoning O'zining aqldan ozgan sevgilisi deb nom berdi. London "Martin Eden" ismini Shvetsiyaning Adalen shahrida tug'ilgan, ishchi sinf odami Martin Edindan olgan, ammo xarakter Edin bilan emas, balki London bilan ko'proq o'xshashliklarga ega. Ruf Mors London hayotidagi birinchi muhabbati Meybel Applegarsdan namuna olingan. Brissenden londonlik do'st va ilhomlantiruvchi Jorj Sterlingdan namuna olingan. Brissendenning vafotidan keyin muvaffaqiyatli bo'lgan "Efemera" she'ri Sterlingning "Sehrgarlik sharobi" asosida yaratilgan¹.

Asar yosh matros yigit Martinning Artur ismli boy va zodagon oila farzandi bilan tanishib qolishidan boshlanadi. Martin paromda Arturga mast yigitlar hujum qilganda qutqarib qolgan va Artur uydagilarga bir hayvonsifat kuchli odam olib kelaman ammo qo'rqmanglar deb aytib qo'ygan bo'ladi. O'zi haqidan qutqarib olingan odamdan bunday gaplar chiqishi mumkinligi bu soda va to'pori yigitning hayoliga ham kelmaydi. Bu xonadonda Martin Ruf ismli qizga ko'zi tushadi tushadiy-u bu uydagi hamma narsa unga jozibali va go'zal tuyula boshlaydi. U o'z xatti harakatlarini tanqid qila boshlaydi va oddiy taomlanish bu shunchaki qorin to'yishi uchun yeyish emas ammo ovqatlanishda nazokat nafislik, va odobli

¹ <https://earnestlyeccentric.wordpress.com/2020/08/03/martin-eden/>

ovqatlanish kerakligi his qiladi. Ruf bilan gaplasha turib u Suinberg ning she'rlari haqida suhbatlashib qoladi, ammo bilganlari urvoq ham bilmasligi anglab jim qoladi. Ammo Martin o'zi kezgan dengizlar hamda yurtlar haqida aytib berar ekan Ruf o'zi hech qachin duch kelmagan bunday shijoatga, g'ayratga to'la baquvvat yigitga o'zini otgisi kelardi.

Mehmondorchilikdan qaytayotgan Martin bu mo'jizali xonadondan butunlay o'zgacha odamga aylanib chiqadi. Yo'lda ketarkan u o'ziga o'zi gapirib kula ketadi, Polismen uni ichib olgan gumon qiladi va Martin bu ahvolga tushgani haqida o'ylab, "U meni ichib olgan deb o'yladi, rostda axir men mastman ayol kishining jamoli meni bunchalik mast qiladi deb o'ylamagandim"- deydi. Martin endi bunday yashay olmasligi o'ylay boshlaydi. Yo'lda talabalarni zavq bilan kuzta boshlaydi. "Nahotki shu talabalar erishgan narsaga men erisha olmasam deya"- hayol sura boshlaydi. Martinni endi o'zining o'qib o'rgana olish qobiliyati kuchliroq o'ylantirar edi. U endi o'qib o'rganishga ilmsiz o'tkazgan shuncha yillariga achinadi hamda tinim bilmay o'qishga tushadi.

Martinni ayni o'sha damda opasinikida o'tkazgan damlari o'sha olis 20-asr boshlaridagi amerika hayotini ayniqsa kambag'al yo'qsillarni ko'rgan kechirganlarini yaqqol namoyon etadi. Pochchasi Bernard Higginbotamning Opasi Gertrudaga qiladigan muomilasidan ezilar ammo opasi o'zining taqdiriga allaqachon ko'ngan va bunday hayotni o'zlari uchun doimiy va muttasil davom etishiga indamay og'ir bosiqlik bilan ko'nar edi. Pochchasi Higginbotam zo'rg'a do'kon yuritar bozori o'ngidan kelib hayoti yaxshilanishi mumkin holda ham Gertrudaga qahrini sochardi va bularning hammasi Martinga bunday hayotdan uzoqlashishga va Ruflarnikidek bir biriga muloyim ham mehr bilan gaplashadigan jamiyatga yaqinlashish haqidagina o'ylashga olib kelar edi bularning hammasi. Bu asarda Jek London Martin orqali o'sha davrdagi sinfiy bo'linish shu qadar chuqur bo'lganligini mohirona keltirib bera olgan. Buni oddiygina Martinning Rufning qo'li hamda uning nozik harakatlarini qilgandagi holatini hamda opasining uni o'pgandagi holati bilan solishtiradi. Rufda nafislik, ozodalik hamda qandaydir sof beg'uborlik bor edi Martinning qarashi bo'yicha,

opasi esa og'ir kundalik yumushlardan horigan o'ziga e'tibor bermay qo'ygan, faqatgina qora ish uchun yaratilgan, dag'al qo'lli ayol edi.

Xonadonga bir necha bor tashrifi va sohibjamol bilan suhbatlari qahramonimizning hayotida keskin burilish yasaydi. Endi Martinda bilim olish, ilm cho'qqisiga yetishish, aslzodalar xonadoniga arzirli bo'lish, eng muhimi, Rufga yetishish istagi paydo bo'la boshlaydi. U turli xil kitoblarni o'qiy boshlaydi. Kutubxonaga paydar-pay qatnab turadi. Matroslik safariga ham faqatgina pul zarur mahali chiqadigan bo'ladi. Idenda yana bir g'aroyib orzu — yozuvchi bo'lish istagi paydo bo'ladi. Bir qancha hikoya va qissalar yozib, gazeta va jurnallarga tarqatadi. Vaqt o'tgan sari uning yozgan, ammo hech bir nashrga qabul qilinmagan materiallarining sanog'iga yetib bo'lmay qoladi. Bu orada u Rufning qalbini zabt etadi, dengizdagi safarlarga ham chiqmay qo'yadi. Oqibatda o'ta nochor holatga tushib qoladi, hayotini faqat moddiy manfaat ipiga bog'lagan pochchasi sabab opasining uyidan ketib, 7 farzandli ayolning ijara uyida ijarachi bo'lib yashay boshlaydi. Uning holi shu darajaga yetadiki, kunlab och yuradi, bor-budini garovga beradi va hamma baqqoldan qarzdor bo'lib ketadi².

O'z orzusidan kechishni bir daqiqa ham o'ylab ko'rmaydigan Martin Iden yozishda davom etar edi. Ammo ha deganda unga omad kulib boqavermaydi. Uning bunday ahvolda qolishi Rufga ham hatto opasi Gertrudaga ham yoqmaydi. Ularga oldingi qora mehnat tagidan chiqmaydigan Martin yaxshi edi. Ishlari yurishavermagan Martin endi oz bo'lsa ham oylik beradigan ish qidira boshlaydi va shahar tashqarisidagi kir yuvish joyiga ishga kiradi va ertadan kechgacha ishlay boshlaydi. Jek London keltirgan bu qismning ahamiyatga egaligi shundaki ertadan kechgacha qora mehnatdan chiqmaydigan odamni o'z qorni va uyqudan boshqa narsaga vaqti qolmasligini asta sekin anglay boshlaydi. Har kun it azobini ko'rib charchab ishdan kelgan Martinning kitob o'qish va ma'naviy ozuqa olish uchu hech qanday holi ham istagi ham qolmaydi. Dam olish kunlari esa bu charchoqni chiqarish uhcun Martin bo'kkunicha ichishni odat qilib oladi.

² <https://kun.uz/news/2023/03/20/hayot-va-haqiqiylik-aks-etgan-asar-kitobxon-martin-iden-romani-haqida?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F03%2F20%2Fhayot-va-haqiqiylik-aks-etgan-asar-kitobxon-martin-iden-romani-haqida>

O'zining hayvandan farqi qomayotgani hamda bunday yashash shunchaki umrni o'ldirish ekanligini anglaydi. Buni anglab yetgan Martin shunchaki bu ishni tashlab shaharga qaytadi. Bir kuni unga g'oyibdan omad kela boshlaydi va uning yozgani uchun haq to'lashlarini aytishadi. Ilgarilari rad etilgan ishlari nega to'satdan bunday yurib ketgani Martinni ajablantiradi. Bungacha esa Ruf uni tashlab ketgan opasi pochchasining qistovi bilan Martin bilan orani uzoqlashtirgan edi. Asarlar unga ko'p, haqiqatda ko'p pul olib keladi. Lekin Martin bu pullarni nima qilishini bilmasdi. Oldin undan ijrg'angan odamlar endi u bilan yaqin bo'lishni istardi. Martin esa ular hech qachon o'zgarmasliklarini omad kelib turganda kelgan odamlar, omad ketganda yana yo'q bo'lib qolishlari mumkinligini his etib turardi. Bunday o'y hayollar unga tinch okeanining olis qismlariga ketishiga undardi. Ruf qaytib keladi yana kimni deng ota onasini qistovi bilan keladi, ammo Martin endi hammasini juda teran anglab turardi. Hamma hammasini tashlab dengizga ketgan Martin o'zini chekshiz tubi ko'rinmas bo'shliqqa ya'ni dengizga oxirgi marotaba nafas olgan holda sho'ng'iydi.

Asar insoniyatning ham juda nafis bo'la turib ich ichidan g'ariblikka ega bo'lishi va sevgi har doim ham sinfiy bo'linishdan g'olib kela olmasligini yaqqol misoli.

References

1. Jeck London "Martin Eden"
2. <https://earnestlyeccentric.wordpress.com/2020/08/03/martin-eden/>
3. <https://kun.uz/news/2023/03/20/hayot-va-haqiqiylik-aks-etgan-asar-kitobxon-martin-iden-romani-haqida?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F03%2F20%2Fhayot-va-haqiqiylik-aks-etgan-asar-kitobxon-martin-iden-romani-haqida>
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/in-jack-londons-martin-eden-the-issue-of-the-struggle-for-the-human-inner-world-and-life>
5. "Criticism in Martin Eden" by Odinayeva Nilufar Luqmonovna and Khud oyberdiyeva Kamola. Teachers of Bukhara State University